

YOSH FUTBOLCHILARDA MUSOBAQADAN OLDIN PSIXOLOGIK RAG‘BATLANTIRUVCHI OMILLARNI SHAKLLANTIRISHNING RAQAMLI INTEGRATIV MODEL

F.A.Oblanazarov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti

Abdullayev Xushnudbek, Abduraxmonov Sardorbek

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada yosh futbolchilarning musobaqadan oldingi psixologik tayyorgarligini shakllantirishda rag‘batlantiruvchi omillarning o‘rni hamda ularni boshqarishda raqamli integrativ yondashuv imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot Jizzax, Qarshi va Samarqand viloyatlaridagi futbol akademiyalari o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazildi. T.Ellers metodikasi asosida muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi darajalari o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, individual mahorat, mashg‘ulotga munosabat, o‘ziga ishonch va qat’iyatlilik yosh futbolchilarning sport natijalarini belgilovchi asosiy psixologik omillar hisoblanadi. Ushbu omillarni monitoring qilish va rivojlantirishda raqamli ta’lim platformalari, psixologik diagnostika ilovalari hamda sport analitik tizimlaridan foydalanish samaradorlikni oshiradi.

Kalit so‘zlar: sport psixologiyasi, motivatsiya, yosh futbolchilar, psixologik tayyorgarlik, raqamli texnologiyalar, integrativ model.

A DIGITAL INTEGRATIVE MODEL OF FORMING PSYCHOLOGICAL MOTIVATIONAL FACTORS IN YOUNG FOOTBALL PLAYERS BEFORE A COMPETITION

Abstract: This article analyzes the role of motivational factors in the formation of pre-competition psychological readiness of young football players and the possibilities of a digital integrative approach to their management. The study was conducted with the participation of students of football academies in Jizzakh, Karshi and Samarkand regions. The levels of motivation to achieve success were studied based on the T. Ellers methodology. The results showed that individual skills, attitude to training, self-confidence and determination are the main psychological factors determining the sports results of young football players. The use of digital educational platforms, psychological diagnostic applications and sports analytical systems in monitoring and developing these factors increases efficiency.

Keywords: sports psychology, motivation, young football players, psychological preparation, digital technologies, integrative model.

ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАТИВНАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ МОТИВАЦИОННЫХ ФАКТОРОВ У МОЛОДЫХ ФУТБОЛИСТОВ ПЕРЕД СОРЕВНОВАНИЯМИ

Аннотация: В данной статье анализируется роль мотивационных факторов в формировании предсоревновательной психологической готовности молодых футболистов и возможности цифрового интегративного подхода к их управлению. Исследование проводилось с участием учащихся футбольных академий Джизакской, Каршиской и Самаркандской областей. Уровни мотивации к достижению успеха изучались на основе методологии Т. Эллера. Результаты показали, что основными психологическими факторами, определяющими спортивные результаты молодых футболистов, являются индивидуальные навыки, отношение к тренировкам, уверенность в себе и целеустремленность. Использование цифровых образовательных платформ, психологических диагностических приложений и спортивно-аналитических систем для мониторинга и развития этих факторов повышает эффективность.

Ключевые слова: спортивная психология, мотивация, молодые футболисты, психологическая подготовка, цифровые технологии, интегративная модель.

Kirish. Zamonaviy sport tizimida yuqori natijadorlikni ta'minlash ko'p omilli jarayon bo'lib, u jismoniy, texnik-taktik va psixologik tayyorgarlikning o'zaro uyg'unligiga asoslanadi. Ayniqsa, musobaqa oldi bosqichida sportchining ruhiy barqarorligi, ichki motivatsiyasi va irodaviy sifatleri uning o'yin faoliyatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Yosh futbolchilar bilan ishlash jarayonida psixologik rag'batlantiruvchi omillarni aniqlash va ularni tizimli ravishda shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Motivatsiya muammosi umumiy va sport psixologiyasida murakkab nazariy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu sohada rag'batlantiruvchi omillar sintezi konsepsiyasi, D.N. Uznadzening "ko'rsatma" nazariyasi, V.G. Norakidzening sport faoliyati motivatsiyasiga oid qarashlari hamda natijaviylik motivatsiyasi nazariyalari muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [1,2]. Raqamli texnologiyalarning sport va ta'lim jarayonlariga jadal kirib kelishi esa psixologik ko'rsatkichlarni monitoring qilish va tahlil etishning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sport faoliyatida motivatsiya masalasi ko'plab psixolog olimlar tomonidan o'rganilgan. B.G. Ananyev shaxsni bilish obyekti sifatida o'rganish zarurligini ta'kidlagan bo'lsa, A.N. Leontyev motivatsiya va ehtiyojlarning shaxs faoliyatidagi o'rnini asoslab bergan. I.A. Djidaryan motivatsiya tarkibida emotsiya va ehtiyojlar o'zaro bog'liqligini ko'rsatgan. Sport psixologiyasida muvaffaqiyatga yo'naltirilgan motivatsiya masalalari V. Goshek, M. Vanek va B. Svoboda tomonidan yoritilgan D.N. Uznadze va V.G. Norakidze ishlari esa sport faoliyatida psixologik ko'rsatkichlar va ichki tayyorgarlik mexanizmlarini

tushuntirishda muhim o‘rin tutadi. Mazkur yondashuvlar yosh sportchilarda motivatsion omillar tizimli xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi [3, 4, 5, 7, 8, 9].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot Jizzax, Qarshi va Samarqand viloyatlaridagi futbol akademiyalari o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazildi. Tadqiqotda T.Ellersning “Shaxsning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi” metodikasidan foydalanildi [4]. Tahlil jarayonida quyidagi omillar o‘rganildi:

- ✓ individual mahorat
- ✓ mashg‘ulotga munosabat
- ✓ o‘ziga ishonch
- ✓ qat’iyatlilik

Olingan natijalar foiz ko‘rsatkichlari asosida qiyosiy-statistik tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yosh futbolchilarning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi akademiyalarga qarab turlicha ifodalangan. Jizzax futbol akademiyasi o‘quvchilarining muvaffaqiyatga bo‘lgan motivatsiyasi o‘rtacha darajada 16%, yuqori darajada 52%, juda yuqori darajada esa 32% ni tashkil qilgan. Qarshi futbol akademiyasi o‘quvchilarida bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 8,3%, 33% va 58,4%, Samarqand futbol akademiyasida esa 13,3%, 46,7% va 40% ni tashkil etdi.

Individual mahorat omili bo‘yicha natijalar shuni ko‘rsatdiki, Jizzax akademiyasi o‘quvchilarida o‘rtacha daraja 4%, Qarshi akademiyasida 2,1%, Samarqand akademiyasida 3,1% ni tashkil etdi. Yuqori darajadagi ko‘rsatkichlar Farg‘ona akademiyasida 13%, Qarshi akademiyasida 8%, Samarqand akademiyasida 12% ni tashkil qilgan. Juda yuqori daraja Namangan akademiyasida 15%, Farg‘onada 8%, Samarqandda 11% ni tashkil qilgan. Bu natijalar individual mahoratning futbolchilarning muvaffaqiyatga erishishida muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Mashg‘ulotga munosabat omili bo‘yicha Jizzax futbol akademiyasi o‘quvchilarida o‘rtacha daraja 4%, yuqori daraja 13%, juda yuqori daraja 6% ni tashkil qilgan. Qarshi akademiyasida bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 2,1%, 7% va 14% ni, Samarqand akademiyasida esa 4,1%, 11,7% va 10% ni tashkil etdi. Bu natijalar futbolchilarning mashg‘ulotlarga bo‘lgan ijobiy munosabati yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

O‘ziga bo‘lgan ishonch omili bo‘yicha Jizzax akademiyasida o‘rtacha daraja 4%, yuqori daraja 12%, juda yuqori daraja 8% ni tashkil qilgan. Qarshi akademiyasida mos ravishda 2%, 8,1% va 14%, Samarqand akademiyasida esa 3%, 11% va 9% ni tashkil etdi. Shu bilan birga, Namangan akademiyasida juda yuqori daraja 14% ni tashkil qilgan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘ziga bo‘lgan ishonch motivi futbolchilarning psixologik tayyorgarligida muhim rol o‘ynaydi.

Qat’iyatlilik omili bo‘yicha Jizzax akademiyasida o‘rtacha daraja 4%, yuqori daraja 14%, juda yuqori daraja 10% ni tashkil qilgan. Qarshi akademiyasida o‘rtacha daraja 2,1%, yuqori daraja 10,2%, juda yuqori daraja 15,4% ni, Samarqand akademiyasida esa o‘rtacha daraja 3,1%, yuqori daraja 12%, juda yuqori daraja 10% ni tashkil etdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, qat’iyatlilik futbolchilarning musobaqada muvaffaqiyatga erishishida muhim psixologik omil hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari yosh futbolchilarda individual mahorat, mashg'ulotga bo'lgan munosabat, o'ziga bo'lgan ishonch va qat'iyatlilik motivlarining yuqori darajada shakllanganligini va ularning sport natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, akademiyalar o'rtasida ba'zi farqlar mavjud bo'lib, bu murabbiylik jarayoni sifati va mashg'ulotlar tashkiliy tizimi bilan bog'liq ekanligi aniqlangan.

Muhokama. *Muvaffaqiyatga bo'lgan motivatsiya* - Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yosh futbolchilarda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi turlicha darajada shakllangan. Jizzax futbol akademiyasida motivatsiya yuqori va juda yuqori darajada bo'lib, o'quvchilarning mashg'ulotlarga faol yondashishini ko'rsatadi. Qarshi va Samarqand akademiyalarida esa yuqori darajalar biroz farq qilgan bo'lsa-da, ular ham psixologik tayyorgarlikda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Natijalar T.Ellersning metodikasi bilan uyg'unlikda bo'lib, sport psixologiyasidagi ilgari surilgan nazariyalarni tasdiqlaydi.

Individual mahorat va mashg'ulotga munosabat- Individual mahorat omili yosh futbolchilarning musobaqaga tayyorgarligida yetakchi psixologik rag'batlantiruvchi faktor sifatida namoyon bo'lgan. Yuqori mahorat sportchilarda o'ziga ishonch va qat'iyatlilikni oshirishga xizmat qiladi. Mashg'ulotga bo'lgan munosabat esa futbolchilarning motivatsiyasini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Qarshi akademiyasida yuqori munosabat darajalari murabbiylarning tajribasi va mashg'ulotlar sifatining samarasini ko'rsatadi.

O'ziga bo'lgan ishonch- o'ziga bo'lgan ishonch motivi yosh futbolchilarning psixologik tayyorgarligida asosiy rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yuqori darajadagi o'ziga ishonch futbolchilarning musobaqaga tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Namangan futbol akademiyasida juda yuqori o'ziga ishonch ko'rsatkichlari boshqa akademiyalar bilan taqqoslaganda biroz farq qilgan, bu esa individual yondashuv va murabbiylik metodikasining ta'sirini aks ettiradi.

Qat'iyatlilik - futbolchilarning muvaffaqiyatga erishishida hal qiluvchi psixologik xususiyat hisoblanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Qarshi futbol akademiyasida qat'iyatlilik ko'rsatkichlari yuqori bo'lib, bu futbolchilarning mashg'ulotlar va musobaqa jarayonida qiyinchiliklarga bardosh berish salohiyatini oshiradi. Jizzax va Samarqand akademiyalarida ham yuqori darajadagi qat'iyatlilik yosh futbolchilarda bu xislatning shakllanganini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurasulov R., Ibaydullayeva U. (2020). Methods of overcoming internal conflicts between teenagers. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-7.
2. Абдурасулов Р. А., Каршибоева Г. А. Психологик тренинг асослари. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент–2019 йил.
3. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. – Ленинград: ЛГУ, 1969. – 312 с.

4. Baxromov O. Eastern martial arts as a means of developing a healthy lifestyle. 2024.
5. Гошек В., Ванек М., Свобода Б. Успех как мотивационный фактор спортивной деятельности // Психология и современный спорт / Рудик П.А. и др. – Москва: ФИС, 1973. – С. 45-68.
6. Джидарян И.А. О месте потребностей, эмоций и чувств в мотивации личности. – Москва: Наука, 1974. – 210 с.
7. Ибайдуллаева У., Абдурасулов Р. (2021). Низолашув даражасини ўсмирларнинг характер хусусиятларига таъсири. Общество и инновации, 2(10/S), 499-505.
8. Ковалев А.Т. Психология личности. – Москва, 1965. – 278 с.
9. Леонтьев А.Н. Потребности, мотивы, эмоции.–Москва:МГУ,1971.– 336 с.
10. Палайма Ю.Ю. Опыт исследования относительной силы мотива и формирование соревновательной установки спортсменов // Психология и современный спорт / Рудик П.А. и др. – Москва: ФИС, 1973. – С. 72-90.